

RAQAMLI MUHITDA INTELLEKTUAL MULK ARBITRAJI: ONLAYN ARBITRAJNING SAMARADORLIGI

Sultamuradova Sohiba G'ayrat qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti

Mediatsiya va nizolarni muqobil hal etish yo'nalishi

E-mail: sultamuradovasohiba@icloud.com

Annotatsiya: Mazkur tezisda raqamli muhitda intellektual mulk bilan bog'liq nizolarni hal qilishda onlayn arbitrajning o'rni va samaradorligi tahlil qilinadi. Internet texnologiyalarining rivojlanishi natijasida mualliflik huquqi, domen nomlari, raqamli kontent va savdo belgilariga oid nizolar sonining ortib borayotgani yoritiladi. Ushbu nizolarni tezkor va qulay hal etishda ODR hamda onlayn arbitraj tizimlarining afzalliklari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, elektron dalillar, yurisdiksiya, arbitraj qarorlarini ijro etish va maxfiylik masalalari tahlil qilinadi. Onlayn arbitrajning xalqaro intellektual mulk nizolaridagi istiqbollari ham baholanadi.

Kalit so'zlar: ODR, onlayn arbitraj, intellektual mulk, raqamli muhit, domen nizolari, elektron dalillar, arbitraj, mualliflik huquqi, savdo belgisi, xalqaro nizolar.

KIRISH

Raqamli texnologiyalar, onlayn platformalar va intellektual mulk obyektlarining global miqyosda almashinuvi jadallik bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda intellektual mulk bilan bog'liq nizolarni samarali va qulay usullar orqali hal etishga bo'lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Shu nuqtayi nazardan, onlayn arbitraj va mediatsiya (Online Dispute Resolution) tizimining muhim elementlari sifatida shakllanib, an'anaviy sud jarayonlariga texnologik jihatdan muqobil mexanizm sifatida namoyon bo'lmoqda. Ushbu tahliliy materialda raqamli muhitda yuzaga keladigan intellektual mulk nizolarini hal etishda onlayn arbitrajning o'rni va samaradorligi tahlil qilinadi hamda uning tezkorlik, qulaylik va transchegaraviy nizolarga moslashuvchanlik kabi jihatlari ko'rib chiqiladi.

Bundan tashqari, materialda raqamli muhitdagi intellektual mulk nizolarini samarali hal etish uchun huquqiy bazani takomillashtirish, onlayn arbitraj tizimlarini an'anaviy nizolarni hal etish mexanizmlari bilan uyg'unlashtirish hamda barcha tomonlar uchun teng va qulay foydalanish imkonini ta'minlaydigan inklyuziv platformalarni rivojlantirish zarurligi muhokama qilinadi. Xalqaro tajriba, amaldagi huquqiy normalar hamda amaliy misollarni tahlil qilish orqali maqola onlayn arbitrajning intellektual mulk mediatsiyasidagi samaradorligini baholashga va raqamli iqtisodiyot sharoitida nizolarni hal etish tizimlarini yanada takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqishga qaratilgan.

Arbitraj- uzoq davr mobaynida qo‘llanilgan va o‘zini nizolarni hal etishning samarali usullaridan biri ekanligini isbotlay olgan xususiy sudlov tizimi hisoblanadi¹. Bunda nizo davlat sudlariga murojaat qilmagan holda mustaqil va xolis uchinchi shaxslar (hakamlar) tomonidan ko‘rib chiqiladi va hal etiladi. Arbitraj sudining qarorlari tomonlar uchun majburiy kuchga ega bo‘lib, qaror davlat majburlov kuchi bilan ijro etilishi mumkin. Fransuz huquqshunos olimi Rene Devidning fikriga ko‘ra, arbitrajning mohiyati qonun ustuvorligini ta‘minlash emas, balki odamlar o‘rtasidagi totuvlikni ta‘minlash bo‘lib hisoblanadi².

Umuman olganda, arbitraj sudlari taraflarga katta mustaqillik va imkoniyatlar beradigan va boshqa sudlardan ko‘ra ko‘proq betaraf bo‘lgan yurisdiksiyani taqdim eta oladigan sudlov tizimi hisoblanadi. Shu jumladan, nizolarni ko‘rishda taraflar arbitraj o‘tkaziladigan joyni, arbitraj jarayonlari olib boriladigan tilni, qo‘llaniladigan huquqni, shuningdek ishni ko‘rib chiquvchi arbitrlarni ham tanlash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Shu bilan birga, arbitraj sudlari taraflarga mustaqillik beribgina qolmasdan taraflarning jarayon ustidan to‘liq nazorat qilish imkoniyatini ham taqdim etadi.

Onlayn nizolarni hal etish (Online Dispute Resolution – ODR) deganda nizolarni hal qilish jarayonini texnologiyalar va internet platformalari orqali amalga oshirish tushuniladi. Bunda nizolashayotgan tomonlarning uchrashishi talab etilmaydi, balki barcha jarayonlar raqamli muhit orqali olib boriladi. ODR tizimi muzokara, mediatsiya, arbitraj hamda nizolarni hal etishning boshqa muqobil usullarini o‘z ichiga olishi mumkin. Raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi, elektron tijoratning kengayishi hamda intellektual mulk obyektlarining internet orqali faol aylanishi natijasida ODR tizimining ahamiyati tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, raqamli platformalarda amalga oshirilayotgan intellektual mulk bilan bog‘liq bitimlar va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish masalalari ko‘plab nizolarni keltirib chiqarmoqda. Shu sababli, an’anaviy sud jarayonlari bilan bog‘liq vaqt, xarajat va hududiy cheklovlarni kamaytirishda ODR samarali vosita sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Raqamli muhitda intellektual mulk huquqlarini himoya qilish masalasi ham alohida dolzarblik kasb etmoqda. Raqamli texnologiyalar rivojlanishi natijasida mualliflik huquqi bilan himoyalangan asarlar, tovar belgilari va patent obyektlari internet orqali tez va keng miqyosda tarqalmoqda. Bu esa ko‘plab huquqbuzarlik holatlarining yuzaga kelishiga olib kelmoqda. An’anaviy huquqiy mexanizmlar ko‘pincha raqamli muhitdagi tezkor o‘zgarishlarga moslashishda qiyinchiliklarga uchramoqda. Shu sababli onlayn arbitraj platformalari intellektual mulk nizolarini hal

¹ Sun‘iy intellektning xalqaro tijorat arbitrajida nizolarni hal qilishdagi ahamiyati [Matn]: monografiya / Akramov Akmaljon Anvarjon o‘gli. – T.: TDYU nashriyoti, 2023. – 8- bet.

² Mustill, M. (1986). Review of Arbitration in International Trade, by R. David, and Commercial Arbitration in the Federal Republic of Germany, by O. Glossner. The International and Comparative Law Quarterly, 35(4), 1005–1007. Cambridge University Press. <https://www.jstor.org/stable/759900>

etishda samarali muqobil vosita sifatida ko‘rilmoqda. Bunday platformalar internet orqali sodir etilgan mualliflik huquqi buzilishi, tovar belgilaridan noqonuniy foydalanish yoki raqamli bozorlardagi patent nizolarini tezkor tarzda ko‘rib chiqish imkonini beradi. Bundan tashqari, raqamli muhitda huquqbuzar shaxslarni aniqlash qiyin bo‘lishi mumkinligi ham nizolarni hal etish jarayonini murakkablashtiradi. Onlayn arbitraj tizimi esa ekspertlar yoki avtomatlashtirilgan algoritmlar yordamida bunday nizolarni samarali hal qilish imkoniyatini yaratadi.

Bundan tashqari, internet orqali katta hajmdagi ma’lumotlar almashinuvi amalga oshirilayotganligi sababli shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish va maxfiylik masalalari ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu tariqa, raqamli muhitda intellektual mulk onlayn arbitraj tizimlari zamonaviy iqtisodiyot sharoitida nizolarni tezkor, samarali va kam xarajat bilan hal etish imkonini beruvchi muhim mexanizm sifatida shakllanmoqda. Bu esa raqamli bozorda ishtirok etuvchi barcha subyektlar uchun yanada adolatli va qulay nizolarni hal etish tizimini yaratishga xizmat qiladi.

Hozirgi kunda ODR tizimlarining to‘rt turi mavjud:

- moliyaviy da’volarni avtomatik tarzda hal qilish uchun ekspert tizimidan foydalangan holda onlayn hisob-kitob qilish;

- Internet-arbitraj, malakali hakamlar yordami bilan nizolarni hal qilish uchun veb-saytdan foydalanish;

- Iste’molchilarning ayrim turdagi shikoyatlarini ko‘rib chiqish uchun elektron pochtdan foydalangan holda iste’molchilar shikoyatlarini onlayn hal qilish;

- Onlayn mediatsiya, nizolarni malakali mediatorlar yordamida hal qilish uchun veb-saytdan foydalanish³.

Hozirgi kunda Butunjahon intellektual mulk tashkiloti⁴, Singapur xalqaro arbitraj markazi⁵ va Xalqaro savdo palatasi kabi muassasalar⁶, nizolarni onlayn hal qilishda mediatsiya va nizolarni hal qilishning boshqa usullarini qo‘llash bo‘yicha yetakchi o‘rinda turadilar.

Xalqaro arbitrajda arbitrlarni tomonlarning o‘zi tanlashi muhim ahamiyatga ega. Bu nizoni tomonlardan birining milliy sudi emas, balki neytral shaxs ko‘rib chiqishini ta’minlaydi. Bundan tashqari, tomonlar turli huquqiy tizimlar va madaniy farqlarni tushunadigan mutaxassis arbitrlarni tanlash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Eng muhim jihatlardan biri arbitraj qarorlarining Nyu-York konvensiyasi asosida xalqaro miqyosda ijro etilishi mumkinligidir⁷. Xalqaro shartnomalar, xususan 1958-yildagi Nyu York Konvensiyasi tufayli arbitraj qarorlari dunyoning 160 dan ortiq davlatida tan

³ Bakhramova, M. (2022). Onlayn arbitraj faoliyatining huquqiy tartibga solinishi. Journal of innovations in social sciences. 89-94.

⁴ <https://www.wipo.int>

⁵ <https://siac.org.sg>

⁶ <https://internationaltradedecenter.eu>

⁷ [United Nations Convention on the Recognition and Enforcement | New York Convention](#)

olinadi va ijro etiladi. Bu ayniqsa transchegaraviy intellektual mulk nizolarida muhim ahamiyatga ega, chunki turli yurisdiksiyalarda sud qarorlarini ijro ettirish ko‘pincha murakkab va vaqt talab qiluvchi jarayon bo‘lishi mumkin.

Ko‘pgina xalqaro arbitraj institutlari odatda umumiy nizolar yoki investitsion bahslarni ko‘rib chiqish uchun mo‘ljallangan bo‘lib, patent yoki intellektual mulk bilan bog‘liq nizolar uchun maxsus ishlab chiqilmagan. Biroq bu umumiy holatdan istisno sifatida Butunjahon intellektual mulk tashkiloti World Intellectual Property Organization (WIPO) hisoblanadi⁸. WIPO Arbitraj va Mediatsiya markazi orqali vaqt va xarajat jihatidan samarali muqobil nizolarni hal etish usullarini taklif etadi.

WIPO o‘z qoidalarini United Nations Commission on International Trade Law (UNCITRAL) asosida ishlab chiqqan, biroq ularni intellektual mulk nizolariga xos protseduralar va yuqori darajadagi maxfiylikni ta‘minlash uchun moslashtirgan.

Shuningdek, American Arbitration Association (AAA) ham o‘zining arbitraj qoidalari va mediatsiya tartiblariga ega bo‘lib, patent nizolarini ko‘rib chiqish uchun qo‘shimcha maxsus qoidalarini ishlab chiqqan⁹.

Onlayn arbitrajning shakllanishi globalizatsiya va raqamli texnologiyalar rivoji bilan chambarchas bog‘liq. XX asrda shakllangan klassik arbitraj tizimi asosan davlatlararo savdo nizolarini hal etishga xizmat qilgan bo‘lsa, XXI asrga kelib elektron tijorat, transmilliy biznes va intellektual mulk bilan bog‘liq nizolar sonining keskin ortishi yangi mexanizmlarga ehtiyoj tug‘dirdi. Ayniqsa, internet orqali tuziladigan shartnomalar, domen nomlari, raqamli kontent va dasturiy mahsulotlar bilan bog‘liq nizolar an‘anaviy sud yoki arbitraj tizimida samarali hal etilishi qiyin bo‘lib qoldi. Shu sababli xalqaro miqyosda, xususan United Nations Commission on International Trade Law tomonidan onlayn nizolarni hal etish mexanizmlarini ishlab chiqishga alohida e‘tibor qaratildi¹⁰. Ushbu tashkilot tomonidan ishlab chiqilgan texnik tavsiyalar ODR tizimining asosiy prinsiplari shaffoflik, xolislik, samaradorlik va xavfsizlikni belgilab berdi. Onlayn arbitraj tizimi birinchi marta 2002-yilda Buyuk Britaniyada kam ahamiyatli biznesga oid bo‘lgan kichik da‘volarni ko‘rishdan boshlangan. Bunda qarzdor bo‘lgan shaxs qarzni rad etganid, qarzni to‘lash uchun da‘volarni ko‘rib chiqishda qo‘llanila boshlangan. Bugungi kunda ham Buyuk Britaniyada onlayn arbitraj va elektron arbitrlar xizmatlari nizolarni elektron hal qilishda muvaffaqiyatli deb hisoblanadi.

Onlayn arbitrajning muhim afzalligi ekspertiza darajasining yuqoriligidir. An‘anaviy sud tizimida sudyalarning har doim ham murakkab texnologik yoki tijorat masalalarini yetarli darajada tushunmasligi mumkin. Onlayn arbitrajda esa taraflar aynan muayyan sohada tajribaga ega bo‘lgan arbitrlarni tanlash imkoniyatiga ega. Bu

⁸ <https://wipo.int>

⁹ <https://adr.org>

¹⁰ <https://uncitral.un.org/en>

esa qarorlarning sifatini oshiradi va nizolarni samaraliroq hal etishga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, World Intellectual Property Organization tomonidan tashkil etilgan WIPO Arbitration and Mediation Center intellektual mulk nizolarini onlayn tarzda hal etishda muhim institutlardan biri hisoblanadi. Ushbu markaz tezkorlik, maxfiylik va xarajatlarning nisbatan pastligi bilan ajralib turadi.

Shu bilan birga, onlayn arbitrajni to‘liq joriy etish masalasi murakkab huquqiy tizimga bog‘liq. Xalqaro arbitrajning asosiy manbalaridan biri hisoblangan UNCITRAL tomonidan ishlab chiqilgan arbitraj qoidalari nizolarni hal etish tartibini batafsil belgilaydi va bugungi kunda keng qo‘llaniladi. Ushbu qoidalar taraflarga arbitraj tartibini erkin belgilash imkonini beradi va zamonaviy texnologiyalarni qo‘llashni ham inkor etmaydi. Bu esa onlayn arbitraj uchun normativ asos mavjudligini ko‘rsatadi.

Biroq onlayn arbitrajning qator muammolari ham mavjud. Eng asosiy muammo huquqiy tartibga solishning yetarli darajada rivojlanmaganligidir. Amaldagi xalqaro huquqiy hujjatlar, xususan arbitraj qarorlarini tan olish va ijro etishga oid normalar, asosan an‘anaviy arbitrajga mo‘ljallangan bo‘lib, onlayn jarayonlarni to‘liq qamrab olmaydi. Amaldagi xalqaro tizim, xususan New York Convention doirasida arbitraj qarorlarini tan olish uchun ular yozma va imzolangan bo‘lishi talab etiladi. Elektron imzo va raqamli qarorlar esa ba‘zi yurisdiksiyalarda hali to‘liq qabul qilinmagan. Shu sababli ayrim sudlar onlayn arbitraj qarorlarini ijro etishdan bosh tortgan holatlar ham mavjud. Natijada, onlayn arbitraj qarorlarini tan olish va ijro etish masalasi ayrim hollarda murakkablashadi. Bundan tashqari, yurisdiksiya va qo‘llaniladigan huquqni aniqlash masalalari ham dolzarb muammolardan biri bo‘lib qolmoqda.

Texnologik omillar ham o‘ziga xos xavflarni keltirib chiqaradi. Xususan, kiberxavfsizlik masalalari, xakerlik hujumlari, elektron dalillarning soxtalashtirilishi, ma‘lumotlarning maxfiyligi va ularning himoyasi kabi masalalar onlayn arbitrajning ishonchliligiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Bundan tashqari, texnologik infratuzilmaning teng darajada rivojlanmaganligi ayrim tomonlar uchun noqulaylik tug‘dirishi mumkin, bu esa protsessual adolat prinsiplariga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi ehtimolini oshiradi. Shu bois ayrim olimlar onlayn arbitrajni “texnologiya va huquq o‘rtasidagi nomutanosib rivojlanish mahsuli” sifatida baholaydilar.

Shunga qaramasdan, onlayn arbitrajning xulosalari va arbitraj kelishuvlarining qonuniyligi barcha davlatlar qonunchiligidagi hali yechimini topmagan masala hisoblanadi. Chunki onlayn arbitraj muhokamasi qatnashchilari ko‘pchilik texnik tizimlarning samaradorligi va ishonchliligi, elektron arbitraj platformasi provayderlarining xolisligi va taraflar tomonidan tizimlardan foydalanishdagi nomutanosibliklardan xavotirda. Shunga qaramay, murakkab bo‘lmagan ishlarda elektron arbitrajdan foydalanishga qaratilgan global tendensiya

mavjud va bu shubhasiz, kelajakdagi elektron sudlovning o‘shishi uchun asos bo‘lib hisoblanadi¹¹.

Texnologiya intellektual mulkni himoya qilishda tobora muhim rol o‘ynamoqda. Kibermakonda ma’lumotlarni nusxalash nihoyatda oson bo‘lgani sababli, raqamli shakldagi intellektual mulk doimiy ravishda ommaviy huquqbuzarlik xavfi ostida qoladi. Ideal himoya tizimi nafaqat tasodifiy va notijorat buzilishlarning, balki daromad olish maqsadida faoliyat yurituvchi raqamli hujumlarning ham oldini olishi kerak¹².

Endi bevosita raqamli muhitdagi intellektual mulk nizolari masalasini tahlil qiladigan bo‘lsak, intellektual mulk bilan bog‘liq nizolar savdo sirlari, patentlar, tovar belgilari va mualliflik huquqlari kabi obyektlarga kim egalik qilishi masalasida kelib chiqadigan kelishmovchiliklarni anglatadi. Intellektual mulk huquqlaridan foydalanish, ularni buzish, litsenziyalash yoki ularning haqiqiyliigi bilan bog‘liq masalalar yuzasidan kompaniyalar, jismoniy shaxslar va boshqa subyektlar o‘rtasida nizolar paydo bo‘lishi mumkin.

Hozirgi kunda eng ko‘p muhokama qilinayotgan mavzulardan biri intellektual mulkni texnologik himoya qilishning samarali tizimi turli platformalar, texnologiyalar va milliy chegaralardan ustun turuvchi standartlar va protokollarni talab qiladi. Mavjud xalqaro huquqiy tizimlar ham, zamonaviy texnologiyalar ham alohida holda yetarli emas muammoni hal qilish uchun huquq va texnologiya birgalikda qo‘llanishi zarur. Umuman olganda nizolarni muqobil hal etish usullarining qo‘llanilishidan maqsad murakkab nizolarni sud yoki arbitrajda ko‘rish uchun katta mablag‘ sarflamaslik hisoblanadi. Lekin texnologik rivojlanish va ADR usullarining o‘zi ham ko‘p vaqt olishi natijasida ODR usullariga ehtiyoj yuzaga kelgan.

Intellektual mulk nizolarining bir nechta asosiy turlari mavjud. Eng ko‘p tarqalgan nizolardan biri bu mualliflik huquqi bilan bog‘liq nizolar bo‘lib hisoblanadi. Raqamli muhitda mualliflik huquqining buzilishi intellectual mulk uchun yanada xavotirli hisoblanadi. Masalan, internet orqali asarlarning noqonuniy tarqatilishi, plagiat holatlari yoki kontentni ruxsatsiz foydalanish holatlari tez-tez uchraydi. Bunday nizolarni onlayn arbitraj orqali hal qilishda asosiy e‘tibor dalillarni tezkor yig‘ish va tahlil qilishga qaratiladi. Elektron dalillar skrinshotlar, server loglari, platforma ma’lumotlari arbitraj jarayonida muhim rol o‘ynaydi. Onlayn arbitrajning ustun tomoni shundaki, taraflar geografik jihatdan uzoqda bo‘lsa ham, masofadan turib dalillarni taqdim etishi va muhokama qilishi mumkin.

¹¹ A.A., Akramov. Sun‘iy intellektning xalqaro tijorat arbitrajida nizolarni hal qilishdagi ahamiyati [Matn]: monografiya / Akramov Akmaljon Anvarjon o‘g‘li. – T.:TDYU nashriyoti, 2023.- 120 b.

¹² Robert A. Cinque, Note, Making Cyberspace Safe for Copyright: The Protection of Electronic Works in a Protocol to the Berne Convention, 18 FORDHAM INT’L LJ. 1258, 1271 (1995).

Mualliflik huquqi nizolarida ko‘pincha tezkor choralar muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, noqonuniy joylashtirilgan kontentni tezda olib tashlash talab etiladi. Onlayn arbitraj platformalari bunday hollarda “tezkor arbitraj” yoki soddalashtirilgan tartiblarni taklif qilishi mumkin. Bu esa zarar miqdorini kamaytirish va huquqbuzarlikni darhol to‘xtatishga yordam beradi. Shu bilan birga, arbitraj qaroriga asosan platforma operatorlari yoki xizmat ko‘rsatuvchilar kontentni bloklash yoki o‘chirish majburiyatini olishi mumkin.

Yana bir muhim tur tovar belgisi bilan bog‘liq nizolar hisoblanadi. Bunday nizolar asosan bozorda tovar va xizmatlarni farqlash uchun ishlatiladigan logotiplar, brend nomlari va boshqa identifikatorlardan foydalanish bilan bog‘liq kelishmovchiliklardan iborat. Masalan, bir tomon boshqa tomon o‘xshash belgidan foydalanib, iste’molchilarni chalg‘itmoqda deb hisoblaganida tovar belgisi huquqining buzilishi bo‘yicha da’vo keltirib chiqarishi mumkin. Bundan tashqari, insofsiz raqobat va tovar belgisining obro‘cini pasaytirish kabi holatlar ham uchraydi. Tovar belgisi bilan bog‘liq nizolar kompaniyaning brend identiteti va iste’molchilar tasavvuriga bevosita ta’sir qilgani sababli juda muhim hisoblanadi. Bozorda raqobatbardoshlikni saqlab qolish va brendning barqarorligini ta’minlash uchun tovar belgilarini himoya qilish katta ahamiyatga ega.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, intellektual mulk bilan bog‘liq nizolarni hal etishda arbitraj muhim vosita hisoblanadi va u bunday nizolarning o‘ziga xos talablariga mos keladigan ko‘plab afzalliklarga ega. Ushbu muhokama davomida arbitrajning bir qator ustunliklari, jumladan, tomonlarning jarayon ustidan nazoratga ega bo‘lishi, samaradorlik, maxfiylik va mutaxassislik darajasi haqida so‘z yuritildi. Ushbu afzalliklar arbitrajni an’anaviy sud jarayonlaridan ajratib turadi hamda intellektual mulk nizolarini tezkor, maxfiy va tomonlarning ehtiyojlariga mos tarzda hal qilishni istagan kompaniyalar uchun jozibador mexanizmga aylantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

I. Foydalanilgan darslik va maqolalar:

1. A.A., Akramov. Sun'iy intellektning xalqaro tijorat arbitrajida nizolarni hal qilishdagi ahamiyati [Matn]: monografiya / Akramov Akmaljon Anvarjon o'g'li. – T.:TDYU nashriyoti, 2023.- 120 b.
2. Bakhramova, M. (2022). Onlayn arbitraj faoliyatining huquqiy tartibga solinishi. *Journal of innovations in social sciences*. 89-94.
3. Mustill, M. (1986). Review of *Arbitration in International Trade*, by R. David, and *Commercial Arbitration in the Federal Republic of Germany*, by O. Glossner. *The International and Comparative Law Quarterly*, 35(4), 1005–1007. Cambridge University Press. <https://www.jstor.org/stable/759900>
4. Susskind, R. (2019). *Online Courts and the future of justice*. Oxford University Press.
5. Thomas E. Carbonneau & Henry Allen Blair, *Carbonneau and Blair's cases and materials on arbitration law and practice 2* (8th Ed. 2019).
6. Robert A. Cinque, Note, Making Cyberspace Safe for Copyright: The Protection of Electronic Works in a Protocol to the Berne Convention, 18 *FORDHAM INT'L LJ*. 1258, 1271 (1995).
7. United Nations Convention on the Recognition and Enforcement | New York Convention

II. Foydalanilgan saytlar:

1. <https://adr.org>
2. <https://internationaltradecenter.eu>
3. <https://www.jstor.org/stable/759900>
4. <https://siac.org.sg>
5. <https://uncitral.un.org/en>
6. <https://wipo.int>